(10). Umarxo‘jayev M. Umumiy tilshunoslik. Toshkent, 2010.
(11). Bruno Rochette. La traduction de textes religieux dans l’Egypte gréco romain. Revue international et le pluridisciplinaire de religion grecque antique. Varia, 1995, 8.

Мирахмедова Шохида Нусратиллоевна (Чирчикский государственный педагогический университет, Факультет гуманитарных наук, преподаватель кафедры «Межфакультетские общественные науки»)

О ФАРИДУДДИНЕ АТТАРЕ И ЕГО РАБОТЕ “ТАЗКИРАТ УЛЬ-АВЛИЯ”

Аннотация. *В статье рассматривается жизненный путь Фаридуддина Аттара, его творчество, вершина его художественного творчества, а также уникальное и известное произведение “Тазкират ул-Аулийа”, написанное в прозе, в котором содержатся сведения о шейхах суфизма, обсуждаются святые, их откровения и чудеса, различные мистические термины, шариат, тарикат, их взгляды на просветление, доверие, удовлетворенность, терпение и благодарность.*

Ключевые слова: *“Тазкират уль-Аулийа”, мутаваккиль и тазкиранави, шейхи суфизма, шариат, тарикат, просвещение, доверие, согласие, терпение, благодарность, поэзия, притчи и поговорки, карама, макамат, необычный обычай, наука, математика, фикх.*

Miraxmedova Shoxida Nusratilloyevna (Chirchiq davlat Pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti “Fakultetlararo ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi)

FARIDUDDIN ATTOR VA UNING “TAZKIRAT UL-AVLIYO” ASARI HAQIDA

Annotatsiya. *Maqolada Fariduddin Attorning hayot yo‘li, asarlari tahlili, badiiy ijodini yuksakligi, “Tazkirat ul-avliyo” ushbu asari nasrda bitilgan yagona va mashhur asar bo‘lib, unda tasavvuf shayxlari, avliyoullohlarning hayoti, kashfu karomatlari, turli tasavvufiy istilohlar shariat, tariqat, ma’rifat, tavakkul, rizo, sabr, shukur kabilarga ularning qarashlari haqida to‘xtalib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *“Tazkirat ul-avliyo”, mutavvakil va tazkiranavis, tasavvuf shayxlari, shariat, tariqat, ma’rifat, tavakkul, rizo, sabr, shukur, she’riyat, masal va naqllar, karomat, maqomat, holat horiqi odat, kashf-u riyoziyot, fiqh.*

Mirakhmedova Shokhida Nusratilloyevna (Chirchik State Pedagogical University Faculty of Humanities Teacher of the Department of “Interfaculty Social Sciences”)

ABOUT FARIDUDDIN ATTOR AND HIS WORK “TAZKIRAT UL-AVLIYO”

Annotation. *The article discusses the life path of Fariduddin Attar, analysis of his works, the height of his artistic creativity, the unique and famous work “Tazkirat ul-Awliya” written in prose, which deals with the lives of the sheikhs of Sufism, the lives of the saints, their revelations and miracles, and their views on various mystical terms such as Sharia, Tariqat, Enlightenment, Tawakkul, Riza, Sabr, and Shuku.*

Keywords: *“Tazkirat ul-Awliya”, Mutawakkul and tazkiranavis, sheikhs of Sufism, Sharia, Tariqat, Enlightenment, Tawakkul, Riza, Sabr, Shukur, poetry, parables and sayings, miracle, maqamat, unusual custom, revelation and mathematics, fikx.*

Kirish. (Inroduction) Shayx Fariduddin Attor–Sharq tasavvuf adabiyotining buyuk siymosi, bir yelkasida Mavlono Jaloliddin Rumiydek, ikkinchi yelkasida Mir Alisher Navoiydek ustozlarni tikka ko‘tarolgan mo‘jizakor adib, daho ijodkor. Olti yashar Alisher “Qush tili”ni o‘qib, ne ahvolga tushgani sizga ma’lum. Buni qarangki, o‘n ikki yoshli Jaloliddin ham Attor qalamiga mansub “Asrornoma”ni o‘qib, ayni ahvolni boshdan kechirgan va umr bo‘yi shu kitobning shavqi, sururi bilan yashagan.

Buyuk shoir, mutaffakir va tazkiranavis F.Attor (Muhammad Abu Bakr ibn Ibrohim 1145–1230), u o‘z ijodi bilan fors tilidagi she’riyat, tasvvuf adabiyoti, tazkiranavislikka katta hissa qo‘shgan. U Nishopur Eron viloyatining Kadakon qishlog‘ida attor va tabib oilasida tug‘ilib o‘sdi. Otasi dorishunos do‘kondor, o‘z zamonasining obro‘-e’tiborli tabiblari bilan aloqada bo‘lgan. Fariddudin Mashhad va Nishopur madrasalarida tahsil oladi. Qur’on fiqh va hadisdan tashqari, nujum, tabobat, falsafa, mantiq kabi bilimlarni ham egalladi. Otasi kabi dorifrushlik va attorlik kabi sohalarga ham qiziqadi. Yoshligidan Fariduddin so‘fiylar hayoti va faoliyatiga qiziqib, keyinchalik, tasavvuf ta’limotiga bag‘ishlab qator masnaviylar yaratgan. Badiiy ijod bilan ham mashg‘ul bo‘ladi. Uning vafoti adabiyotlarda turlicha keltirib o‘tilgan. Xususan, yirik tasavvufshunos Knish ma’lumotiga ko‘ra, uning maqbarasi Alisher Navoiy tomonidan qurilgan. Unda vafot tarixi 586-hijriy, milodiy 1190-yil ko‘rsatib o‘tilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. (Literature review) Attorning “Bulbulnoma”, “Ushturnoma” asarlari ramziy-allegorik timsollar asosida yozilgan. “Javhar uz-zot”, “Xayloj”, “Asrornoma”, “Sharh ul-qalb”, “Musibatnoma” kabi dostonlari bevosita muhokama-mushohada, fikriy-shuuriy bayonlar tarzida bitilgan. Bundan tashqari, “Xusravnoma”ga o‘xshab majoziy ishqni kuylagan romantik-sarguzasht asari

ham bor. Attorning 2 qismdan iborat "Javhar uz-zot" asarida butun ruhiy va moddiy olamlar yagonaligi ta'-riflangan.

Iloh har bir zarrada mavjud, ammo uni oddiy ko'z bilan ko'rish mumkin emas. Alloh o'z borlig'ida ham pinhon-u ham paydo, barcha ashyolar yolg'iz javhardan kelib chiqqan. "Asrornoma"da bu fikr yanada aniqroq ifodalangan. Attor asarlarida xalq og'zaki ijodidan unumli foydalangan. "Mantiq ut-tayr" (1175, bu asar "Maqomoti tuyur" deb ham nomlangan) asari mashhur. Bolalik chog'ida bu dostonni yod olib, uning ta'sirida ("Qush tili") dostonini yozgan. Ushbu asar eng yirik adabiy yodgorligi hisoblanadi. Bundan tashqari, Attor "Pandnoma", "Besarnoma", "Devon", "Vuslatnoma", "Tazkirat ul-avliyo" kabi asarlar mu-allifi. Uning "Ilohiynoma" asari ham masnaviy yo'lida bitilgan ishqiy-ma'rifiy, falsafiy-axloqiy dostondir. Masnaviyda 282 ta hikoyat va qissalar bayon etilgan.

Zero, tavhid mohiyati ham, haqiqat ham, oxir-oqibat, inson mohiyati va haqiqati bilan izohlangan. Shoirning 96 bobdan iborat "Tazkirat ul-avliyo" asari nasrda bitilgan yagona va mashhur asar bo'lib, unda tasavvuf shayxlari, avliyoullohlarning hayoti, kashfu karomatlari bayon etilgan.

Fariduddin Attorning ijodida va tasavvuf namoyandalari to'g'risidagi kitoblari ichida alohida o'rin tutadigan asari, shubhasiz, "Tazkirat ul-avliyo"dir. Asarning birinchi tahririda yetmish ikkita, ikkinchi mu-kammal tahririda esa to'qson besh nafar eng yirik tasavvuf allomalarining qisqacha hayot va faoliyati, aso-san, turli masalalarga oid fikr-mulohazalari bayon etilgan [1;6-b.].

Tadqiqot metodologiyasi. (Research Methodology). Maqolada tadqiqot metodologiyasi tadqiqot falsafasi va yo'nalishini (deduksion yoki induksion) belgilaydi. Ya'ni, tadqiqot muammosining yechimiga olib boruvchi bosh rejasini tuzish, tadqiqot uchun zarur axborotni olish yo'llari, tadqiqot strategiyasini aniq-lash bo'yicha ratsional qaror qabul qilish asosida qo'yilgan muammoning aniq yechimiga olib chiquvchi yo'lni belgilashni anglatadi.

Muallif asarning kirish qismida "Tazkirat ul-avliyo"ning yozilishiga asos bo'lgan manbalar "Sharh ul-qulub", "Kashf ul-asror", "Ma'rifat un-nafs" [2;11–12-b.] kabi manbalarga ishora qiladi. Tazkirada allo-malarning o'z ilmiy-nazariy qarashlari va ta'limotini asoslash, tasdiqlash maqsadida tarixiy voqealar, hayo-tiy tajriba, o'tmish mashoyixlarining ibratli kechmishlari hikoya, masal va naqllar bilan tasnif etilgan. Ush-bu kitob O'zbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 7-oktabridagi "2010–2020-yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish davlat dasturi" asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita-ning 2012-yil 27-iyuldagi 1741-xati bilan nashrga tavsiya etilgan [3;2-b.]. "Tazkirat ul-avliyo"ning asosiy qismi, ya'ni, mashoyixlar fiqralariga bag'ishlangan qismi Abu Muhammad Ja'fari Sodiq fiqrasi bilan bosh-lanib, Mansur halloj fiqrasi bilan yakunlanib, asarning xotimasi bilan yakunlangan. Bunda muallif asarda tilga olingan mashoyixlar fiqra (karomat, maqomat, holat horiqi odat, kashfu riyoziyot)larni bayon etishda mashoyixlarning ulug'ligi, tabarrukligiga e'tibor berilgan.

"Tazkirat ul-avliyo" asaridagi ba'zi mashoyixlar bilan to'ldirilganligini, uni Jomiyning "Nafahot ul-uns" asarida nazarda tutilmagan turkiy mashoyixlar hamda hind mashoyilari bilan boyitganini ta'kidlaydi. Eng e'tiborli jihati shundaki, Hazrat Navoiy o'z asarini Jomiyning "Nafahot ul-uns"sida bo'lmagan turkiy bilimdonlar bilan to'ldirish bilan birga, ularning qahramonlik, vatanparvarlik, jasorat, dadillik va adolat-parvarlik kabi xislatlarini, zulm va adolatsizlikka qarshi isyonkor jasoratlarini qalamga oladi. Bular to'g'-risida aniq asoslarni ham keltirib o'tadi.

Tahlil va natijalar. (Analysis and results). Tadqiqotchilar "Tazkirat ul-avliyo" asarining yozili-shida foydalanilgan manbalar to'g'risida har xil fikr bildirishgan. Jumladan, eronlik olimlardan Badiuzza-mon Furozanfar tomonidan Isfahoniyning "Hiliyat ul-avliyo" va Hujviriyning "Kashf ul-mahjub" asarlari [4;87-88-b], Muhammad Istiye'lomiy tomonidan Sulamiyning "Tabaqat us-sufiya", Isvahoniyning "Hilli-yat ul-avliyo", Qushayriyning "Risolayi Qushayriya" va Hujviriyning "kashf ul-mahjub" asarlari "Tazkirat ul-avliyo"ning shakllanishida asosiy o'rin tutgan manbalar sifatida eslatib o'tilgan bo'lsa [5;233–234-b.], Mahmud Obidiyning fikricha, "Tazkirat ul-avliyo"ning katta qismi "Kashf ul-mahjub" asaridan olingan. [6;12, 30-b.].

"Fariduddin Attor to'grisida Alisher Nanoiy o'zining "Nasoyim ul-muhabbat (Muhabbat shabada-lari) asarida quyidagilarni yozadi: "Alar shayx Majduddin Bag'dodiyning murididurlar va "Tazkirat ul-av-liyo" kitobikim, alarning musannafotidindur. Aning debochasida o'zlarini shayx Majduddinga irodatlarin zohir qilibdurlar va ba'zi debdurlarki, Uvaysiy ekandurlar va Mavlono Jaloluddin Rumiy so'zlarida maz-kurdurki, shayx Mansur Halloj nuri yuz ellik yildan so'ngra shayx Fariduddin Attor ruhiga tajalli qildi va uning murabbiysi bo'libdur".

Alisher Navoiy Fariduddiin Attor she'rlari na masnaviylarini juda yuqori baholab, ularda tayahid siri va haqoyiq ifoda etilganini tan oladi.

Xulosa qilib aytganda, Shayx Attor asarlari Haq va haqiqatning mangu barhayot taronalaridir. Ularning asrlar osha insonlar qalbini zabt etib, ardoqlanib, sevib o'qilayotgani sababi ham shunda. Shu tufayli shoirning ijodiy faoliyati evolutsiyasiga tarixiy-sinergetik uslubda yondashuv uning ijodidagi hali bizga noma'lum bo'lgan qirralarini aniqlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Fariduddin Attor. "Tazkirat ul-avliyo". T., G'.G'ulom nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017, 6-bet.

(2). Fariduddin Attor. "Tazkirat ul-avliyo". T., G'.G'ulom nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017, 11–12-betlar.

(3). Fariduddin Attor. "Tazkirat ul-avliyo". T., G'.G'ulom nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017, 2-bet.

(4). Furuzonfar Badiuzzamon. Shayx Fariddudun Muhammad Attor Nishopuriy hayoti va asarlari tadqiqi (fors tilida). Tehron, 1995, 87–88-betlar.

(5). Komiljon Rahimov. Movarounnahr tasvvufi tarixi: ta'limotining shakllanishi va tizimlashtirilishi (VIII–XI asrlar). T., "Akademnashr", 2020, 23–234-betlar.

(6). Hujviriy, Ali ibn Usmon. Kashf ul-mahjub (fors tilida). Mahmud Obidiy tahriri ostida muharrir so'zboshisi, Tehron, "Surush", 2007, 12, 30-betlar.

Степанян Альбина Анатольевна (старший преподаватель Самаркандского государственного института Иностранных языков)

АКСИОЛОГИЧЕСКИЙ АСПЕКТ ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ РЕКЛАМНОГО ДИСКУРСА В ЖЕНСКИХ ЖУРНАЛАХ

Аннотация. *Рекламный дискурс наделен рядом специфических черт, и выбор лексических единиц играет большую роль в реализации лингвопрагматической интенции. В данной статье рассматривается аксиологический аспект лексических единиц рекламного дискурса во французских женских журналах, и предпринимается попытка выявить закономерность отбора лексики.*

Ключевые слова*: аксиологический аспект, рекламный дискурс, лексическая единица, дискурс женских журналов, коннотация.*

Stepanyan Albina Anatolevna (Samarqand davlat Chet tillar instituti katta o'qituvchisi)

AYOLLAR JURNALLARIDA REKLAMA NUTQINING LEKSIK BIRLIKLARINING AKSIOLOGIK JIHATI

Annotatsiya*. Reklama nutqi bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega va lingvopragmatik niyatni amalga oshirishda leksik birliklarni tanlash katta rol o'ynaydi. Ushbu maqola fransuz ayollar jurnallaridagi reklama nutqining leksik birliklarining aksiologik jihatini ko'rib chiqadi va lug'at tanlash naqshini aniqlashga harakat qiladi.*

Kalit so'zlar: *aksiologik aspekt, reklama nutqi, leksik birlik, ayollar jurnallari nutqi, konnotatsiya.*

Stepanyan Albina Anatolevna (Senior Lecturer at Samarkand State Institute of Foreign Languages)

AXIOLOGICAL ASPECT OF LEXICAL UNITS OF AN ADVERTISING COURSE IN WOMEN'S MAGAZINES

Annotation*. Advertising discourse is endowed with a number of specific features and the choice of lexical units plays a big role in the implementation of linguopragmatic intention. This article examines the axiological aspect of lexical units of advertising discourse in French women's magazines, and attempts to identify the pattern of vocabulary selection.*

Key words: axiological aspect, advertising discourse, lexical unit, discourse of women's magazines, connotation.

Введение. В жизни современной женщины журналы, рассказывающие о моде, средствах по уходу за собой, косметике, стилю жизни и т.д. играют важную роль. При этом, т.н. «женские журналы» могут быть ориентированы на разные возрастные категории, социальное и материальное положение, потребности читательниц.

Существуют различные виды французских женских журналов, например такие как: Cosmopolitain, Vogue, Version Femina, которые направлены на формирование определенного стиля жизни. Такие журналы, как La Maison, Jardin des Modes, Cuisine и House and Garden в основном привлекают женщин, которые стремятся создать уют в доме, а журналы, подобные Elle France, Marie Claire, Femme Actuelle, в большей степени предназначены для той части женской аудитории, которая следит за модой и уделяет внимание уходовой косметике.